

BOSH PIYOZNING YANGI YARATILGAN “QIZIL NUR” NAVINI YETISHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI

Xurramov Ulug'bek Xolmamatovich

**Toshkent davlat agrar universiteti “Sabzavotchilik va
issiqxona xo'jaligini tashkil etish” kafedrası professor, q.x.f.d.
sabkonf-22@mail.ru**

Hayitbayev Doniyor Komiljon o'g'li

**Qoraqolpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti “Dehqonchilik, qishloq
xo'jaligi ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi” kafedrası mustaqil izlanuvchisi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17605797>**

Annotatsiya

Maqolada Qishloq xo'jaligi ekinlarini parvarishlash va mahsulot yetishtirish bo'yicha texnologik karta asosida bosh piyozning yangi Qizil nur navini standart Kaba-132 naviga nisbatan yetishtirish texnologiyasining iqtisodiy samaradorligi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: nav, namuna, tizma, nav, duragay, boshi piyoz, hosildorlik, ertapishar, nav namunalari, barg, barg yuzasi, bosh piyoz vazni va iqtisodiy samaradorligi.

Kirish. Hozirgi kunda fermer va dehqon xo'jaliklari hamda tomorqa egalariga ertapishar, hosildor, yuqori sifatli hosil beradigan, kasallik va zararkunandalarga chidamli hamda turli tashqi muhit omillariga bordoshli ekinlarning nav va duragaylari zarur, balki u yuqori foyda olishni ham ta'minlashi kerak.

Yuqoridagilarni inobatga olib, bosh piyozning turli muddatlarda yetishtirishda standart navga nisbatan ertapishar, yuqori hosil beradigan va sifatli hosil miqdori yuqori bo'lgan yangi Qizil nur navini iqtisodiy samaradorligini aniqlash bo'yicha tahlil o'tkazildi.[2].

“Qishloq xo'jaligi ekinlarini parvarishlash va mahsulot yetishtirish bo'yicha namunaviy texnologik karta” (2024 y.) asosida aniqlandi. Bosh piyozning Qizil nur navi va standart nav Kaba-132 navlarini yetishtirish uchun yerni ekishga tayyorlash ishlariga (haydov, tekislash, egat olish) bir gektar hisobiga 3 800 ming so'm xarajat qilindi.

Urug'liklarga bo'lgan xarajatlar jami bir gektar uchun o'rtacha 3 000 ming so'm xarajatlar qilindi. Urug'larni ekish va o'simliklarni parvarishlash, shu jumladan sug'orish, begona o'tlardan tozalash, kasallik va zararkunandalarda himoya qilish hamda o'g'itlash uchun qilingan xarajatlar 21 000 ming so'mni tashkil etdi.[3].

Ekilgan bosh piyozning navlarini o'suv davri davomida jami 2 marta, har bir gektar hisobiga 180 kg azotli o'g'itlar bilan oziqlantirildi. Hosilni yig'ish va uni ortish uchun bajarilgan xarajatlar Qizil nur va Kaba-132 navlarida aniqlandi.

Ulardan olingan mahsulotning miqdoriga nisbatan yig'ish va ortish hamda tashish uchun umumiy 10 900 - 8 200 ming so'm miqdorda xarajatlar sarflandi.

1-jadval.

Bosh piyozning Qizil nur navi (Analogik andoza shakl) ga nisbatan yetishtirishni iqtisodiy samaradorligi, ga/ming.so'm (2024 y.).

t/r	Ko'rsatkichlar	Nav namunalari	
		Qizil nur	Kaba-132, St.
1.	2	3	4
2.	Yerni ekishga tayyorlash, ming so'm	3 800	3 800

3.	Urug'liklarga bo'lgan xarajatlar, ming so'm	3 000	3 000
4.	Parvarishlash (begona o'tlardan tozalash, o'g'itlash, kasallik va zararkunandalardan himoya qilish), ming so'm	21 000	21 000
5.	Hosilni yig'ishtirish, ortish, ming so'm	8 200	5 500
6.	Hosilni tashish, ming so'm	2 700	2 100
7.	Jami xarajatlar, ming so'm	38 700	35 400
8.	Bevosita xarajatlar, (25%)	9 675	8 850
9.	Umumiy xarajatlar, ming so'm	48 375	44 250
10.	Tovarbob hosildorlik, t/ga.	45,7	35
11.	1 t hosil narxi, ming so'm	2 500	2 500
12.	Sotilgan mahsulot narxi.	114 250	87 500
13.	1 t hosil tannarx. (9:10)	1 058	1 264
14.	Sof foyda, ming so'm	65 875	43 250
15.	Rentabellik, % (14:9)	136	97,7

Jami xarajatlar Yerni ekishga tayyorlash, urug'likka va uni ekishga, Parvarishlash (begona o'tlardan tozalash, o'g'itlash, kasallik va zararkunandalardan himoya qilish), hosilni yig'ishtirish, ortish hamda hosilni tashish uchun qilingan harajatlar hosil miqdoridan kelib chiqib standart Kaba-132 nav uchun 35 400 ming so'm, yangi Qizil nur navga esa 38 700 ming so'm bo'lganligi aniqlandi. Jami qilingan xarajatlarning ko'tilmagan bevosita xarajatlari qo'shib hisoblaganimizda umumiy xarajatlar standart Kaba-132 navda 44 250 ming so'm, yangi Qizil nur navda 48 375 ming so'm hosil miqdoridan kelib chiqib standart navga nisbatan 4 125 ming so'm ortiqcha harajatlar qilindi.

Bugungi kunda bozor iqtisodiyoti sharoitida qizil bosh piyozni 1 kg tovarbob hosili ko'tara sotuvda 2000...3000 so'mdan sotilishi hisobga olingan holda, hosilini ko'tara sotish bo'yicha 2500 so'mdan hisoblandi.

Ko'tarasiga dala sharoitida sotilgan mahsulotni narxini hisoblanganda eng yuqori sotilgan mahsulot narxi Qizil nur 114 250 ming so'mni tashkil etganligi aniqlandi. Olingan sof foydani aniqlashda hosil sotish bahosidan har bir gektar uchun qilingan jami xarajatlarni chiqarib yuborildi va bunda eng yuqori sof daromad yuqori bo'lgan xarajatlarga qaramay Qizil nur navida yuqori 65 875 ming so'mda bo'ldi. Ushbu ko'rsatkich standart Kaba-132 naviga nisbatan 22 625 ming so'mga yuqori bo'ldi.

Tajribalarda bosh piyozning Qizil nur va Kaba-132 navlarini sinovdan o'tkazilganda, hosildorligi oshib borgan sari 1 tonna mahsulotning tannarxi arzonlashib borganini hisoblashlar davomida aniqlandi. Yangi Qizil nur va standart Kaba-132 navlarining 1 tonna mahsulotini tannarxi (1 058-1 264 ming so'm) bo'ldi.

Bugungi kunning ta'labi yetishtirilgan mahsulotning samaradorligi yuqori bo'lishni taqozo etmoqda. Tajribalarimizda bosh piyozning mahsulot yetishtirishning rentabellik darajasi Kaba-132 navida 97,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, yangi yaratilgan Qizil nur navi yetishtirish hisobiga rentabellik samarasi 136 % bo'lib standart navga nisbatan 38,3 % ga yuqori ekanligini ko'rsatdi.

Lekin shuni takitlash joizki yangi yaratilgan Qizil nur va standart Kaba-132 navlarini yetishtirishdagi barcha agrotexnik tadbirlariga hamda boshqa qilingan harajatlarga qaramasdan iqtisodiy samarasi yuqoriligi aniqlandi.

Xulosalar

Bosh piyozining “Qizil nur” navida tovarbop hosil miqdori o‘rtacha gektariga 43,4 tonna gektariga olindi. Standart “Kaba-132” naviga nisbatan 11,9 tonna gektariga yuqori bo‘lib, hosildorlikda sezilarli farqni namoyon etdi. Shuningdek, yangi navdan olingan sof foyda 114 250 ming so‘mni tashkil etdi va rentabellik darajasi 136% ni tashkil qildi.

References:

1. Qishloq xo‘jaligi ekinlarini parvarishlash va mahsulot yetishtirish bo‘yicha namunaviy texnologik kartalar 2022-2026 yillar uchun (Sabzavot, kartoshka, poliz va uzum ekinlari bo‘yicha) 3-qism.
2. <http://library.tdau.uz>ru/books/1655>
3. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта. // М., «Колос». 1973.